



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 7-13 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI



Usmonov Ibrat Bobomurod o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Statistika kafedrasida Statistika yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
E-mail: i.usmonov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlari, ularning tavsifi, yillar bo‘yicha vaqtli qatorlari, so‘nggi yillarda O‘zbekiston hududlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari hamda statistik tahlillari amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, ish haqi, aholi daromadlari, daromadlar taqsimoti, bandlikning malakaga muvofiqligi, bandlikning o‘sishi, mehnatga layoqatli yosh, vaqtli qatori, davriy qatorlar, o‘shish koeffitsiyenti va sur‘ati.

Аннотация. В данной статье проведены значение основных показателей рынка труда, их описание, динамические ряды по годам, тенденции изменения основных показателей труда в последние годы в регионах Узбекистана и видах экономической деятельности, а также осуществлены статистический анализ.

Ключевые слова: рынок труда, уровень занятости, уровень безработицы, заработная плата, доходы населения, уровень профессиональной подготовки работников, условия труда, пригодность к трудоустройству, рост занятости, трудоспособный возраст, динамический ряд, периодический ряд, коэффициент и ставка роста.

Abstract. The article contains the meaning of the main indicators of the labor market, their description, time series analysis, trends in the changes in the main indicators of labor market in recent years in the regions of Uzbekistan and types of economic activity, and also includes a statistical analysis.

Key words. labor market, employment level, unemployment rate, wages, personal income, level of professional training of workers, working conditions, suitability for employment, employment growth, working age, time series, periodic series, coefficient and growth rate.

KIRISH

Mehnat bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning holati va o‘zgaruvchan tendensiyalari aholi hayoti va turmush darajasiga bevosita ta‘sir qiladi. Statistik ma‘lumotlar siyosatchilarga mehnat bozori tendensiyalarini tushunishga, muammoli sohalarni aniqlashga va ishsizlik, to‘liq bandlik ta‘minlanmaganligi hamda malakalar nomutanosibligini bartaraf etish uchun samarali

siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi. Korxonalar ishga qabul qilish, kadrlarni o'qitish va ish haqi strategiyalari bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun mehnat bozori ma'lumotlaridan foydalanadi. Ish izlovchilar mehnat bozori ma'lumotlaridan talab yuqori bo'lgan ko'nikmalarni aniqlash, muayyan tarmoqlarga e'tibor qaratish va ish qidirish strategiyalarini moslashtirish uchun foydalanishi mumkin. Ishsizlik darajasi, bandlik darajasi va ishchi kuchi ishtiroki darajasi kabi ko'rsatkichlar umumiy iqtisodiy holatning asosiy indikatorlari hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston ham mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishining muayyan tendensiyalariga ega bo'lib, ular statistik tahlil va o'rganishni talab qiladi.


USULLAR

Ushbu maqolada O'zbekistonda mehnat bozori asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalarini qiyosiy tahlil qilishda dinamika o'rtacha sur'atlarini hisoblash, ma'lumotlarni guruhlash va jamlash, arifmetik o'rtacha, o'rtacha o'sish sur'ati hamda nisbiy ko'rsatkichlar usullaridan foydalanilgan. Masalan, bandlik darajasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun yillar, hududlar yoki iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo'yicha tahlili amalga oshirildi. Bunday tahlil qaysi sohalarda bandlikning ortishi yoki kamayishi, bunga qanday omillar ta'sir etishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL


Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida, shuningdek aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda demografik holat muhim o'rin tutadi. 2024 – yilning 1 – yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda yashovchi doimiy aholi soni 36,8 mln kishini tashkil etib, yil davomida 774,9 ming kishiga yoki 2,2 % ga ko'paygan. Bundan ko'rinib turibdiki har yili aholi soni o'rtacha 700 ming kishiga ortmoqda. Aholining asosiy qismini, ya'ni 56,3 %ini mehnatga layoqatli yoshdagilar tashkil etgan bo'lsa, o'z o'rnida 32,6 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar va 11,1%i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'tgan 2023 – yilda respublikamizda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 20 505,3 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni 2016 – yil ma'lumotlari bilan taqqoslanganda 1 248,3 ming kishiga yoki 6,5 foizga ko'payganligi kuzatildi¹. Bu esa o'z o'rnida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan bandlik darajasi ko'rsatkichi ma'lum bir joyida band bo'lgan iqtisodiy faol aholi ulushini aks ettiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasidagi bandlik darajasi, % da


Respublikamizdagi iqtisodiy faol aholi soni 2016 – yilda 14 022.4 ming kishi va bandlar soni 13 298.4 ming kishini, 2023 – yilda esa mos ravishda, 15 038.3 ming va 14 014.2 ming kishini tashkil etdi. Iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan bandlik darajasi 2016 – yilda 94,8 foizni tashkil etgan. 2023 – yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 93,2 foizga yetganligini kuzatish mumkin (1-rasm). Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2023 – yilda respublikamizdagi jami bandlar soni 14014,2 ming kishini tashkil etib, 2016 – yilga nisbatan taqqoslanganda 715,8 ming kishiga yoki 5,4 foizga ortgan. Xususan, iqtisodiyotning davlat sektorida bandlar 2023 – yilda 2567,4 ming kishini bu esa 2016 – yilgiga nisbatan 237 ming kishiga yoki 10.2 foizga ortdi. Iqtisodiyotning nodavlat sektorida bandlar 2023 – yilda 11446,8 ming kishini, bu esa 2016 – yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan 478,8 ming kishiga yoki 4,4 foizga ortdi (2-rasm).



2 – rasm. Iqtisodiyot sektorlarida band aholi soni, ming kishi.

Shuni ta’kidlash kerakki, band aholining 23,9 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida band bo‘lib, bu boshqa sohalarga nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi. Shuningdek, nisbatan yuqori ulushga ega bo‘lgan faoliyat turlaridan ishlab chiqarish

sanoati sohasida bandlar 11,9 foizni, ulgurji va chakana savdo sohasida 11,3 foizni, qurilish sohasida 10,7 foizni va ta'lim sohasida bandlar 9,3 foizni tashkil etgan (3 – rasm).



3-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bandlar soni, ming kishida.

Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlaridan yana bittasi ishsizlik darajasidir. U doimiy ish joyiga ega bo'lmagan va ishga kirishishga tayyor iqtisodiy faol aholi ulushini aks ettiradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ishsizlik darajasining pasayish kuzatilmoqda, bu esa mehnat bozoridagi ijobiy tendensiyalardan dalolat beradi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 – yilda ishsizlik darajasi 6,8% ni tashkil etgan.

Aholining farovon hayot kechirish va turmush darajasining yaxshilanishida asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri - bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichi hisoblanadi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, 2023 – yilda aholining umumiy daromadi 728 826,1 mlrd.so'mni tashkil etib, jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi esa 20 015,9 ming so'mga teng. Aholining umumiy daromadlari 2022 – yilga nisbatan 15 foizga oshgan bo'lsa, jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar 12,6 foizga ko'payganini kuzatish mumkin (1-jadval).

Aholi daromadlarining umumiy ko'rsatkichlari², yillar kesimida

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so'm	197962.4	236893.1	300685.8	365598.3	414968.7	519181.4	633567.4	728826.1
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming.so'm	6215.9	7314.1	9123.8	10887.3	12122.2	14869.8	17772.8	20015.9
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so'm	187517.7	216400.1	255837.5	319216.2	367456.6	468448.4	568527.8	662749.9

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari


Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming.so‘m	5887.9	6681.4	7763	9506	10734.3	13416.8	15948.3	18201.2
---	--------	--------	------	------	---------	---------	---------	---------

Shuningdek, aholi real umumiy daromadlari 2023 – yilda 662 749,9 mlrd. so‘mni hamda jon boshiga real umumiy daromadi esa 18 201,2 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 4,6 foizga hamda 2,4 foizga ko‘paygan.


Jon boshiga aholining umumiy daromadini hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, 44 427,9 ming so‘m bilan Toshkent shahri peshqadamlik qilmoqda. Undan keyingi o‘rinlarda esa Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyatlarida mos ravishda 31 445,6, 23 480,3 hamda 20730,2 ming so‘mni tashkil etdi.

Jon boshiga aholining real umumiy daromadida ham Toshkent shahri 39 910,1 ming so‘mni bilan yuqori o‘rinda turibdi. Navoiy viloyatida 28 665,1 ming so‘m, Buxoro viloyatida 21 378,8 ming so‘m hamda Toshkent viloyatida 18 878,2 ming so‘mni tashkil etmoqda (4 – rasm).

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida)



Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida)



4 – rasm. Jon boshiga aholining umumiy va real umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida)³, ming so‘m

Mehnat statistikasining yana bir muhim ko‘rsatkichi – ish haqi miqdori hisoblanadi. O‘zbekistonda ish haqining bosqichma – bosqich oshirilishi kuzatilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi 2023 – yilda 4 551,4 ming so‘mni tashkil etib, 2017 – yilga nisbatan 3,0 barobarga oshgan (2-jadval).

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari.

O‘zbekiston Respublikasining o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi, yillar kesimida (ming so‘m)⁴

Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichining eng yuqori ko‘rsatkichi Moliyaviy va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib, 12 411,4 ming so‘m (2017 – yilga nisbatan 5,0 barobarga oshgan) ni tashkil etgan. Bundan tashqari, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko‘rsatkichi boshqa sohalarga nisbatan axborot va aloqa (10 125 ming so‘m), tog‘ – kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (8 060,5 ming so‘m) hamda tashish va saqlash (6 537,2 ming so‘m) da kuzatiladi.

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	1251538	1542598	1946778	2227541	2662003	3204301	3799614
Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha							
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	849029.1	1041353.6	1300276.6	1624455.8	1847194.1	2240339.0	2583070.6
Qurilish	1609625.0	2049100.7	2536531.2	3133570.2	3721803.5	4416589.6	5175988.4
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2727982.6	3529265.6	4157078.8	5371731.1	6360802.8	6790304.8	8060485.1
Ishlab chiqarish sanoati	1889937.3	2457747.7	3059176.6	3247249.2	3530014.4	4518622.2	5184578.0
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1183778.8	1493995.1	2143181.5	2803271.0	3451596.6	4392502.9	5339897.4
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	1040372.8	1149816.6	1246520.9	1834985.6	2122267.0	2555618.9	3135819.2
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta‘minot	1290415.0	1807552.3	2635029.6	3128220.8	3765823.7	4807385.3	6137535.1
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	1277704.7	1564720.0	1939888.5	2237560.0	2562325.0	2962621.8	3645626.5
Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	959573.6	1125020.9	1414107.0	2038901.4	2415008.2	2977341.6	4089311.5
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1844626.0	2476528.8	2823137.6	3392506.9	3839839.9	5312049.7	6295825.7
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	1028476.4	1222574.9	1436960.7	1734656.3	2223312.1	2409251.7	2760755.5
Axborot va aloqa	2324483.5	3045043.2	3786823.6	4275407.6	5186856.4	7037478.9	10125000.9
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2451736.0	3138611.7	4252617.6	5746370.5	7449790.4	9571457.5	12411368.1

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma‘lumotlari

Tashish saqlash va	1858046.7	2278981.7	2776281.9	3364421.1	3863489.8	4803654.1	6537186.7
Yashash ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	970798.6	1199553.3	1631321.2	1784700.9	2258634.2	2840715.5	4063162.0
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	1514388.6	1764647.1	2206147.1	2572917.3	3016234.8	3695547.4	4771078.0
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	633637.6	704839.3	910457.8	1255940.3	1705776.3	2338493.5	2931503.5
Ta'lim	1101826.3	1287127.4	1742544.7	1994210.1	2259648.0	2598760.5	3035404.3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	926991.1	1085903.8	1468530.5	1800327.1	2084830.5	2452868.5	2882805.4

XULOSA

Bozor munosabatlarining mavjudligi va shu bilan bog'liq mehnat bozorining holatini statistik baholash, o'rganish, tahlil qilish va mamlakatimiz uchun ilgari noma'lum bo'lgan milliy hisoblar tizimi bir qator ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Ijtimoiy – iqtisodiy hodisa va jarayonlari o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish, bizning sharoitimiz, amaliyotimizga mos kelmagan kategoriyalar ustida ish olib borish va ularni iloji boricha milliy hisoblar tizimidan chiqib ketmasdan amaliyotimizga moslashtirish va shu kabi vazifalarni hal etish uchun bozor mexanizmini, uning qonuniyatlari, tendensiyalarini chuqur va mukammal o'rganishda statistik tadqiqotlar tashkil etishni talab etadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat bozorining bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, ish haqi va aholi daromadlari kabi asosiy ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari statistik tahlilni talab qiladi. Statistik tahlil natijalari orqali O'zbekistondagi mehnat bozori ko'rsatkichlarini boshqa davlatlar bilan taqqoslash, milliy mehnat bozorining xususiyatlari va muammolarini aniqlash mumkin. Bu esa, O'zbekiston hukumatiga mehnat bozorini rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, bandligini ta'minlash va mamlakatni umumiy ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha samarali chora – tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent shahri, 2021-yil 11-avgust, O'RQ-707-son (<https://lex.uz/docs/5569619>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori.
3. Q.X.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Mehnat", 2009.
4. X.Shodiyev., I.Xabibullayev. Statistika. T.: - 2013 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
6. Abrayev Sherzod Xurromovich. "O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI ASOSIY KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISH TENDENSIYALARI VA ULARNING STATISTIK TAHLILI" nomli maqola.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

